

O‘QITUVCHILAR KASBIY FAOLIYATIDA PEDAGOGIK MULOQOT USLUBLARINING O‘ZLASHTIRISH JARAYONLARI

¹G.Ya.Ismoilova, ²A.A.Yuldashev, ²M.O.Sariqulov, ²U.A.Samiyev

¹Andijon viloyati Andijon shahar 27-maktab direktori,

Andijon shahar Mustaqillik 21 yilligi MFY Oltinko'l 118 uy

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti,

Andijon shahar do'stlik ko'cha 4 uy

Abstrakt: Maqolada o‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogik muloqot uslublarinining o‘zlashtirish jarayoniga ta’siri tahlil etilgan. Bundan tashqari pedagogik muloqot uslubini to‘g’ri qo’llash orqali, o’quvchilarni odob-axloqi, mavzusini o‘zlashtirish bilan bog’liq jihatlari maqolada aks etgan.

Kalit so’zlar: ta’lim tizimi, muloqot uslublari, fikrlash tarzi, nutq madaniyati, muomala odobi.

Inson o’zini qurshab olgan olam bilan o’zaro birgalikda harakat olib boradi.

Buning natijasida odamlar o’rtasidagi ijtimoy hayot va ishlab chiqarish faoliyati jarayonida topadigan munosabatlar tizimi yuz beradi. Kishilar ish jarayonida nafaqat tabiatga, balki bir birlariga ham o’zaro ta’sir o’tkazadilar. Boshqalar bilan fikr almashib o’zaro muloqot qiladilar. Muloqot jarayoni pedagog kasbiy faoliyatining eng muhim qismi hisoblanib, bugungi kunda o‘qituvchi pedagogik muloqot uslubini rivojlantirish jarayoniga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonda barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar zamirida yosh avlodning tarbiyasi, ta’limi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Buning yorqin misolini Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning “Bizni o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog’liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ko‘proq his etadigan kim–yoshlar. Mayli yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lishsin. Lekin ayni payda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida aks sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan” - degan fikrlaridan anglashimiz mumkin. Ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog xodimlarning muloqot madaniyatini rivojlantirish ta’lim sifati va ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimidagi xalqaro tajriba hamda ta’lim tizimiga qo‘yilgan bugungi davr talablarini inobatga olgan holda o‘qituvchi pedagogik muloqot uslublarini o‘zlashirish jarayoniga ta’sirini chuqur tadqiq etish va bu borada kerakli tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchilarda pedagogik muloqot uslublarni takomillashtirish, ta’lim tizimida tarbiyaviy va ta’limga oid jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish, talabalar motivatsiyasilarini shakllantirishda muhim omil ekanligi, shuningdek, ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini samarali tashkil etish, salohiyatni ko‘tarish, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish nuqtai nazaridan zarurati maqolamizning dolzarbligini yanada oshiradi. Pedagogik muloqot – bu o‘qituvchining o‘quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari faoliyatda o‘zi uchun

eng qulay bo‘lgan psixologik muhitni vujudga keltirib, ijobiy ruhiy iqlimni yaratish uchun imkoniyat beruvchi kasbiy munosabatdir. Bugungi pedagog kadrlar zimmasida buyuk ma’naviyatimizni tiklash va milliy ta’lim-tarbiya tizimi takomillashtirish, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirib, jahon andozalari darajasiga chiqarish kabi bir qator vazifalar turadi. Buning asosiy omillaridan biri esa pedagogik muloqot jarayonidir. Muloqot - ta’lim oluvchi psixologik va ijtimoiy rivojining muhim omillaridan biri bo‘lib, bиргаликдаги faoliyatda umumiy natijalarga erishish, shaxslararo munosabatlarni yo‘lga qo‘yish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida ikki yoki undan ortiq kishilarning o‘zaro harakati tushuniladi. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun muloqotda suhbatdoshni yoki tinglovchini idrok etish bir-birini tushunish asosiy shartidir. O‘zaro fikrlarni anglash uchun suhbat jarayonida ma’lumot mazmuniga alohida e’tibor qaratish lozim. Pedagogikada ma’lumot mazmuni – yoshlarning ma’lumoti, taraqqiyoti, tarbiyasini mo’ljallab hozirgi zamon fani, texnikasi, ishlab chiqarishi, fikrlashning umumiy asoslarini didaktik ishlov berish yo‘li bilan tanlangan bilimlar, ko’nikmalar, ijodiy faoliyat tajribasi va ma’lumotidir Agar o‘qituvchi o‘quvchilarni uni qanday idrok etayotganligini anglayolmasa pedagogik muloqot o‘z maqsadiga yetmaydi. Ayniqsa, ma’ruza o‘tayotganda bu juda muhimdir. Agar hamsuhbatni ko‘rish orqali idrok etish imkoniyati bo‘lmasa, qo‘l barmoqlari va yuz harakatlari orqali bo‘ladigan imo-ishoralar kambag‘allashib, harakatlar erkinligini yo‘qotib qo‘yadi. Hamsuhbatning fe’li atvorini idrok etish chog‘ida olinadigan signallar shaxsning keyingi harakatlari va fikrlarini to‘g‘irlab borish uchun asos bo‘ladi. O‘qituvchi kasbiy faoliyatida pedagogning jismoniy qiyofasidagi ayrim belgilari yuz, qo‘llar va yelka harakatlari, o‘zini tutishlari, gavdasini qimirlatib imo-ishora qilishlari, so‘zlash ohangi axborot tashuvchilar sifatida xizmat qiladi. Pedagogik muloqot jarayoni samarali bo‘lishi uchun birinchi navbatda gapni masalaning qo‘yilishidan boshlash mumkin, bu masalada bo‘lajak suhbatning ma’nosи mujassamlashgan bo‘lib, pedagog tinglovchilarni jalb qilib olishi uchun eng muhim qadam hisoblanadi. Pedagog dars jarayonini mavzuga diqqatni tortishga urinib ko‘rishdan boshlashi ham mumkin. Bunda gapni erkin, qiziqarli faktlarni ma’lum qilish, mavzuga doir aforizmlar yoki hikoyadan, buyuk mutafakkirlar bisotidagi o‘chmas sham misoli fikrlaridan boshlasa bo‘ladi. Keyin uni tushuntirish va tahlil qilish esa pedagogik muloqot jarayonining mazmunini tashkil etadi. Pedagogik muloqot jarayonida mavzuni ochib berish davomida aniq ma’lumtlardan chetlashib, mavzu doirasida aylansa uni tinglayotgan talabalar jamoasida ishonchszlik, o‘zlashtirishning pastligi, diqqatning tarqoqligi yuzaga keladi. Suhbatga o‘quvchilarning diqqati jalb qilingach, uning mavzusini ancha qisqa, lekin yetarli darajada aniq qilib ochib berish vazifasi turadi. Buni qanday amalga oshirish mumkin. Masalan, suhbatni tuzishning bir nechta varianti mavjud. Dastlab, pedagog talabalar ongi va hissiyotiga yetkazmoqchi bo‘lgan asosiy fikr qisqacha bayon etiladi. So‘ngra u ochib beriladi, buning uchun faktlar, misollar va illyustratsiyalar tizimi bayon qilinadi. Bunda erkin taqqoslashlar, kutilmagan o‘xshatishlardan foydalanish juda foydali bo‘ladi. Shundan keyin xulosa chiqarish, ya’ni suhbatning asosiy fikrini boshqacha so‘zlar bilan takrorlash mumkin.

Muomalaning tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiy sifatlari bilan belgilanishini aytib o‘tish kerak. Pedagogik

muomalaning to‘g‘ri tanlangan, pedagogning betakror individualligiga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuini hal qilishga yordam beradi. Birinchidan, pedagogik ta’sir ko‘rsatish pedagog shaxsi bilan ayni bir narsa bo‘lib qoladi, auditoriya bilan muomalada bo‘lish jarayonining o‘zi soddalashadi, u pedagogning o‘zi uchun yoqimli, uzviy bo‘lib qoladi. Ikkinchidan, talabalar bilan o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish jarayoni ancha engillashadi. Uchinchidan, pedagogik muomalaning barcha eng muhim vazifalarining, samaradorligi ortadi, shu bilan birga bularning hammasi muomalaning barcha bosqichlarida pedagogning hissiy xotirjamligining ijobiy negizida ro‘y beradi. Muomala vaqtida odoblilik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning muvaffaqiyatli kelishini ta’minlaydi. Uning asosiy vazifalari (axborot almashinuv, o‘zaro ta’sir, o‘zaro idrok qilish) to‘g‘ri amalga oshirishni idora qilib turadi. Har bir fikr bildirilganda muloqot qabul qilinayotganini fahmlab turishi tashqi ko‘rinishlari, o‘zgarishiga e’tibor berish, uzr so‘rash, tavoze bilan murojaat qilish evaziga muomala odobi ushlab turiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Охунов И.А., Рахмонов О.М., Алиева Г.А./Совершенствование педагогических условий для формирования у будущих учителей ответственного отношения к виртуальному обучению// ПСИХОЛОГИЯ И ОБРАЗОВАНИЕ (2021) 58(1): 4035-4041.
2. NT Muydinov, OI Radjabov, GA Halilova. The study of rheological properties and structure of films obtained on the basis of collagen. Problems and Perspectives in Pharmaceutics and Drug Discovery 3 (1), 69-722.
2. IR Askarov, NT Muydinov. Determination of chemical composition and antioxidant activity of lemon varieties grown in the natural climate of Uzbekistan ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (11), 599-603
3. Ovhunov I.A. Responsible attitude towards virtual teaching in future pedagogues. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020.
4. ИР Аскаров, НТ Майдинов. Qoramol terisidan tibbiyotda foydalanish uchun tovarlar olish va kimyoviy tarkibini aniqlash. Журнал химии товаров и народной медицины 1 (1), 36-55
5. Способ выделения коллагена и создание препаратов на его основе пленок. Т Гулямов, ОИ Раджабов, АЮ Атажанов, НТ Майдинов, ГА Халилова, ... ДАН РУз 6, 52-56.